

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KIBERXAVFSIZLIK TO'G'RISIDAGI QONUNNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Berdiboyev Sardor

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Butun jahonda rivojlanib borayotgan kiberjinoyatlarga qarshi kurashish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonuning mazmuni va mohiyati, hamda uning O'zbekistonning kiberxavfsizlikini ta'minlashda ahamiyati.*

Kalit so'zlar: *axborotlashtirish obyekti, kiberjinoyatchilik, kibermakon, kibertahdid, kiberxavfsizlik, kiberhimoya, kiberhujum.*

Hozirgi kunga kelib, butun dunyoda kiberhujumlar natijasida dunyo iqtisodiyotiga 26 mlrd AQSh dollari miqdorida zarar yetkazilgan. Kiberjinoyat deganda, axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot resurslari va tizimlarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakon dasturiy ta'minot va texnik vositalaridan foydalangan holda amalga oshirildigan jinoyatlar yig'indisi tushuniladi. Kibertahdidlarga qarshi turishda, hamda ularning oldini olishda asosiy ro'l o'ynab kelayotgan xalqaro tashkilotlarga Birlashgan Millat Tashkiloti va Yevropa Ittifoqi hisoblanadi. Bundan tashqari davlat hamda xususiy sektorlarda ham kibertahdidlarga qarshi kurashishda INTERPOL, APWG (Anti-phishing Working Group), IWF (Internet Watch Foundation), CCIPS (U.S Department of Justice – Division of Computer Crime & Intellectual Property Section), CISA (Cybersecurity & Infrastructure Security Agency), NCSC (U.K. National Cyber Security Centre), ANSSI hamda KISA (Korea Internet&Security Agency) tashkilotlarining asosiy vazifasi kiberxavfsizlikni taminlashdan iboratdir.

Yevropa Ittifoqining Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonuniga ko'ra kiberxavfsizlik – tarmoqlar va axborotlarni, axborot tarmoqlari foydalanuvchilarini va kibertahdidlar ta'sirida bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa tomonlarni himoya qilish uchun zarur bo'lgan faoliyatni anglatadi" [European Union, 2019,p.1]

Butun jahon iqtisodiyoti hamda siyosatiga ta'sir qilib kelayotgan axborotlashtirish sohasidagi jinoyatlarga qarshi turishda, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 25-fevralida qabul qilingan, hamda 2022-yil 17-martda Senat tomonidan ma'qullangan Kiberxavfsizlik to'grisidagi qonun ishlab chiqildi.

Bu qonunning asosiy maqsadi kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, uning asosiy prinsiplari:

Qonuniylik – ya’ni kiberxavfsizlikni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarining talablari bajarilishi shartligi;

Kibermakonda shaxs,jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligi – tashqi va ichki kiber tahdidlardan himoya qilish davlatning kiberxavfsizligini ta’minlash;

Kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishga nisbatan yagona yondashuv – vazifasi ma’lumotlarga ishlov berish hamda ularni himoya qilish bo’yicha dasturiy va texnik vositalarini ishlab chiqish hamda joriy etish jarayonini tashkil etish, uning monitoringini va nazoratini amalga oshishga qaratilgan axborot tizimlarini hamda resurlarini kiber himoya qilish bo’lgan yagona davlat tizimi joriy etilishi bilan ta’minlanadi ;

Kiberxavfsizlik tizimini yaratishda mahalliy ishlab chiqaruvchilari ishtirokining ustuvorligi- ya’ni davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining kiberhimoyasini ta’minlash uchun zarur bo’lgan tovarlarni (ishlar,xizmatlar) xarid qilishda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar xorijda ishlab chiqarilgan tovarlardan ustuvordir;

O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlikni ta’minlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi prinsipi – ya’ni kiberxavfsizlikni ta’minlashda chet davlatlar va ularning vakolatli idoralari, xalqaro shartnomalar doirasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklarni amalga oshiradilar.

Kiberxavfsizlik sohasini davlat tomonidan tartibga solishda, kiberxavfsizlik sohasidagi yagona davlat siyosatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti belgilaydi, va hozirgi qonunchilikka asoslanib, Kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilikda vakolatli davlat organlarining vakolatlariga kiberxavfsizlik sohasidagi normative-huquqiy hujjatlarni va davlat dasturlarini ishlab chiqish, qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi ustidan nazorat qilish, tezkor-qidiruv tadbirlarini,tergovga qadar tekshiruvlarni va tergov harakatlarini amalga oshirish, kiberjinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va bartarag etish shu jumladan ularning oqibatlarini tugatish bo’yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ko’rish, tadqiqotlar o’tkazilishini va monitoringini tashkil etish,bundan tashqari kriptografik himoya qilish vositalarini ishlab chiqishga, ishlab chiqarishga va realizatsiya qilishga doir faoliyatni litsenziyalash,kiberxavfsizlik obyektlarini kiberxavfsizlikni ta’minlash darajasiga ko’ra tasniflash, shu sohada kadrlar tayyorlash bo’yicha faoliyatni amalga oshirish, ekspertiza o’tkazish mexanizmlarini belgilash kabi yana bir necha vakolatlari mavjud bo’lib O‘zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik to’grisidagi qonunning 11-moddasida keltirilib o’tilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlikni ta’minlash sohasida xalqaro shartnomalar doirasida xalqaro tashkilotlar, chet davlatlar va ularning vakolatli

idoralari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi”¹. Ushbu prinsipga asoslangan holda, Vakolatli davlat organi kiberxavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikni o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi. Davlat xavfsizlik xizmati o'z vakolati doirasida xalqaro shartnomalarga muvofiq xalqaro kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish masalalariga doir axborotlarni chet davlatlarga va xalqaro tashkilotlarga so'rov bo'yicha taqdim etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasida “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi kiberxavfsizlik sohasigiga tegishli bo'lgan barcha munosabatlarni tubdan isloh qilishga qaratilgan yangi hamda katta ahamiyatga ega bo'lgan normativ huquqiy hujjat hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu sohadagi vakolatlarning Davlat Xavfsizlik Xizmatiga topshirilishi bilan kibermakondagi barcha hodisalarni ya'ni kibertahdidlarga qarshi kurashishda hamda ularning oldini olishda o'zining vazifasini yuqori darajada bajarilishi ta'minlanadi. Shuningdek, dunyo aholisi axborot xavfsizligining barchaga ma'lum bo'lgan qoidalariga rioya qilishi ya'ni ijtimoiy tarmog'iga yoki elektron pochtaiga kelgan tekshirilmagan, shubhali bo'lgan xabarlardan ehtiyot bo'lish, murakkab parollardan foydalanish, ularni hech kimga bermaslik, shubhali saytlardan foydalanmaslik orqali kibertahdidlardan himoyalanihlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi URL: <https://constitution.uz/oz/clause/index#section1>
2. O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 25-fevraldagi “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi 764-sonli qonun URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/kiberbezopasnost-kak-osnovnoy-faktor-natsionalnoy-i-mezhdunarodnoy-bezopasnosti-hh-veka-chast-1/viewer>
4. Karpova D.N. Cybercrimes: a global issue and its solution. Vlast'=The power no.8, pp, 46-50. (In Russian).
5. Утемуратова С. Инсан ҳуқуқ ҳам еркинликлерин тәмийнлеўдиң ҳуқықый тийкарлары. Суд-хуқуқ ислохотлари: бугуни ва истиқболи» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари Нукус 7 май 2018 –Б.81-83

¹ O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 25-fevraldagi “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi 764-sonli qonun, 9-modda